# MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDA KONVERGENT TA'LIM XIZMATLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot insitituti*
*Biznes va innovatsion menejment kafedrasi assistenti*
***Olimova Bahora Shuxratovna***
*E-mail: bahoraolimova74@gmail.com*
*Tel: +998-91-262-16-00*

**Annotatsiya:** Maqolada masofaviy ta'lim tizimida konvergent ta'lim xizmatlarini shakllantirish va joriy etish asosan telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish darajasiga hamda rivojlantirish strategiyasi yangi ta'lim tizimida ishlashga doir ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** konvergent, raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya, infratuzilma, innovatsion ta'lim, texnologiyalar.

**Abstract:** The article provides information on the formation and introduction of convergent education services in the distance education system, mainly on the level of development of the telecommunications infrastructure and the development strategy of the new education system.

**Key words:** convergent, digital economy, telecommunications, infrastructure, innovative education, technologies.

Masofaviy ta'lim tizimida konvergent ta'lim xizmatlarini shakllantirish va joriy etish, yuqorida aytib o'tilganidek, asosan telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish darajasiga, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga va professor-o'qituvchilar tarkibining yangi ta'lim tizimida ishlashga tayyorlik darajasiga bog'liq. Quyidagi parametrlarni hisobga olish muhim hisoblanadi:




### Masofaviy ta'lim xizmatlarini konvergentlash parametrlari

Innovatsion ta'lim xizmatlarini ko'rsatish loyihasini amalga oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yordamni ishlab chiqish talab etiladi va unda texnik topshiriq va texnik-iqtisodiy asoslarni shakllantirishda:

- ✓ Ta’lim tizimlarida joriy etilayotgan innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish;
- ✓ Masofaviy ta’lim texnologiyasi asosida ta’lim xizmatlarini amalga oshirish uchun tegishli infratuzilmani yaratish;
- ✓ Loyihani amaliy amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan;
- ✓ Tegishli asbob-uskunalar, dasturiy ta’minot va o‘quv-uslubiy ta’minotni sotib olish;
- ✓ Ta’lim muassasasining professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish;
- ✓ Innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha aholini xabardor qilish maqsadida marketing va reklama kampaniyasini o‘tkazish;
- ✓ Belgilangan ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim xizmatlarini amalga oshirish loyihasining ishlashi sifatini nazorat qilish talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitlarda masofaviy ta’lim yashash joyidan, mehnat faoliyati mavjudligi yoki yo‘qligidan qat'i nazar, aholining keng qatlamlari uchun ta’lim xizmatini konvergensiyalash orqali ta’lim sifati oshiriladi.

Masofaviy ta’lim (yoki onlayn ta’lim) o‘qituvchining o‘quvchilarga masofaviy yoki internet orqali o‘qishni taqdim etishini anglatadi va bu konvergensiyalashning bir qismini tashkil etadi, ya’ni har qanday ta’lim uslubi va tehnologiyasi o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan o‘qish kerakli vaqtini va imkoniyatlarini konvergent usulda optimallashtirishni maqsad qiladi.

Masofaviy ta’limda konvergensiyalash quyidagi muhim jarayonlardan iborat bo‘lishi mumkin:

-texnologiyalarni ishlatishda veb-saytlar, videodarsliklar, veb-konferensiyalar, interaktiv o‘qitish dasturlari va boshqa usullarni o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni va ma'lumot almashishni osonlashtiradi;

-bepul resurslardan foydalanish Internet, o‘quv resurslariga oson erishish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar o‘zlariga qulay bo‘lgan va ta’lim materiallarini qidirib topishlari mumkin. Bu orqali, har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy ta’lim yo‘lini tanlash imkonini beradi;

-interaktivlik-konvergent ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarga interaktiv o‘qitish imkoniyatini taqdim etadi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan axborot almashish, veb-konferensiyalarda ishtirok etish, veb-savollar va testlar orqali o‘quv va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

-muddatli amal qilish -o‘quvchilar o‘z vaqtlarida o‘qishlari va vazifalarni bajarishlari mumkin. Bu, ularning o‘zlariga qulay vaqt rejasini tanlashlari imkoniyatini beradi;

-masofaviy va an’anaviy ta’limning konvergensiyasi - o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun eng yaxshi natijalarni olish uchun masofaviy va jismoniy ta’limning birlashmasini taqdim etadi. Misol uchun, o‘quvchilar masofaviy darslar olishlari mumkin, keyin o‘quv markazlarida amaliy mashg‘ulotlarni bajarishadi.

Konvergensiyalash - masofaviy ta’limda o‘quvchilarni o‘rganishni va o‘qitishni sodda va samarali qilishda yordam beradi. Bu qanchalik ilmiy, texnologik va pedagogik komponentlarning birlashmasini o‘z ichiga oladi, ammo muvaffaqiyatga erishish uchun, shuningdek, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning qat’iy ishtirokini talab qiladi[1].

Masofaviy ta’lim sharoitida pedagogik o‘zaro ta’sir o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri masofadan turib avtomatlashtirilgan ta’lim tizimi vositachiligida amalga oshiriladi. Pedagogik o‘zaro ta’sirni tashkil qilish uchun faollik, xabardorlik, ikki tomonlama subyekt-subyekt munosabatlari bilan tavsiflangan funktsional-rol va shaxsiy o‘zaro ta’sirni birlashtirish muhim ahamiyatga ega, uning natijasi ushbu o‘zaro ta’sirning qo‘shma maqsad va vazifalarini aniqlashdir[2].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Thurmond V.A., Wambach K., Connors H.R. et al. Evaluation of student satisfaction : Determining the impact of a Web-based environment by controlling for student characteristics // The American Journal of Distance Education. 2002, № 16. R. 169—189.
2. Шрамко Н.В. Основы репетиторства: ознакомительный курс [Электронный ресурс]: учебник для студентов вузов / Н.В. Шрамко; Урал. государственный пед. универ. - электрон. Дан. - Екатеринбург: [с. и.], 2018 (дата обращения: 23.12.2019).
3. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar, and Norqobilova Feruza Abdihamidovna. “Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region.” Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 345-352.
4. Norqobilova.F.A. “XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARINI MODELLASHTIRISHDA TIZIMLI TAHLIL QILISH, SINTEZLASH VA OPTIMALLAShTIRISH.” International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021.
5. Abdihamidovna, Norqobilova Feruza. “Financial Services to the Residents of the Region in the Field of Crafts.” International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 1 (2021): 225-230.
6. Biznes va innovatsion menejment kafedrasi assistenti Olimova Bahora Shuxratovna, Journal of Advanced Zoology.ISSN: 0253-7214, Volume 44 Special Issue S1 Year 2023 Pages 184:197. Available online at: https://jazindia.com.
7. Biznes va innovatsion menejment kafedrasi assistenti Olimova Bahora Shuxratovna, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal, 2023-yil, oktyabr.6-son, UO‘K: 332.1 www.e-itt.uz/ 45-48-betlar.
8. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi Tangriyev Abdurahmon, “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarining boshqarishning marketing strategiyasi”.